



Genre characteristics of Jesse Stuart's storytelling

Orzigul GANIEVA ¹

Bukhara State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

15 November 2024

Keywords:

Indigenous Peoples,
character,
psyche,
cultural characteristics,
percoon,
bloodroot,
story,
J.Stewart,
realism,
storytelling.

ABSTRACT

Any creator is a product of his time, in which the spirit and defect of the ruling period are manifested, without a doubt. After all, it is not an exaggeration to put forward the idea that there is harmony between the work of art and its author, as well as the use of long-existing phrases such as “body and quotation”, “tree and its harvest” in relation to these two concepts. J.Stewart also became who achieved individuality in 20th-century US realistic storytelling with his unique creativity, poetic thought and breadth of his observation, realistic approach in the image of life reality, adherence to objectivity in artistic reality and deep of his point of view, accuracy in the racurs of poetic expression. In this article, the tradition of 20th-century U.S. realistic storytelling, which are continued in the story “Another April”, based on poet's pen, are subject to analysis.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6-pp265-270>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Jessi Styuart hikoyachiligi janr xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tub xalqlar,
xarakter,
ruhiyat,
madaniy xususiyatlar,
percoon,
bloodroot,
hikoya,
J.Styuart,
realistik,
hikoyachilik.

Har qanday ijodkor o'z davrining mahsuli bo'lib, unda hukmron davr ruhi hamda nuqsi namoyon bo'lishi, shubhasiz. Zero, badiiy asar va uning muallifi o'rtasida uyg'unlik mavjudligi hamda bu ikki tushunchaga nisbatan “et va tirnoq”, “daraxt va uning hosili” singari azaldan mavjud iboralarni qo'llash mumkin degan fikrni ilgari sursak, mubolag'a emas. J.Styuart ham o'ziga xos ijodi, poetik tafakkuri hamda mushohadasining kengligi, hayotiy haqiqat tasvirida real yondashuvi, badiiy haqiqatda xolisonalikka rioya etgani va nuqtai nazarining teranligi, poetik ifoda rakurslaridagi aniqligi bilan XX asr AQSH realistik hikoyachiligida individuallikga erishgan nosirlardan biriga aylandi. Mazkur maqolada adib qalamiga mansub “Another

¹ PhD, Associate Professor, Bukhara State University. E-mail: o.x.ganieva@buxdu.uz

April” hikoyasida davom ettirilgan XX asr AQSH realistik hikoyachiligi an’analari tahlilga tortiladi.

Жанровые особенности рассказа Джесси Стюарта

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

коренные народы,
характер,
психика,
культурные особенности,
percoon,
bloodroot,
история,
Дж.Стюарт,
реалист,
рассказчик.

Любой творец является продуктом своей эпохи, в которой доминирует дух эпохи, а также проявление недостатков, без сомнения. В конце концов, не будет преувеличением, если мы предположим, что существует гармония между произведением искусства и его автором, а также что к этим двум понятиям можно применять давно существующие выражения, такие как “плоть и нготь”, “дерево и его урожай”. Ж.Стюарт также стал одним из прозаиков, добившихся индивидуальности в реалистическом повествовании США двадцатого века благодаря своему уникальному творчеству, поэтическому мышлению и широте наблюдений, реалистичному подходу к изображению жизненной реальности, беспристрастности в художественной реальности и глубине своей точки зрения, а также точности в ракурсах поэтического выражения. В данной статье будут проанализированы наработки реалистического повествования США XX века, продолженные в рассказе “Другой апрель”, написанном писателем.

KIRISH

J.Styuart XX asr AQSH milliy adabiyoti rivojiga hissa qo’shgan nosirlardan biri sifatida, aynan muallif nasrining o’ziga xos jihatini uning shaxsiy hayoti va kasb-korida ekani tadqiqot davomida o’z tasdig’ini topdi. Adib nasriy ijod namunalarida Appalachian tog’lari, shahardan uzoq masofada joylashgan, aniqrog’i qishloq hududlaridagi mahalliy fermalarga xos manzaralar, kichik aholi punktlari hamda ularning betakror tabiati, istiqomat qiluvchilarning turmush tarzi, madaniyati, qadriyatlari tasviriga teran nazar tashlandi. Yozuvchi bolaligidan Kentukki shtatining tog’ yon-bag’irlarida fermerlar oilasida ulg’aygan yillarida to’plagan tajribasi aynan ijodining ilhom manbai bo’lib xizmat qildi. J.Styuart qishloq xalqining dil anduhlari, murakkabliklar, jamiyatdagi ziddiyatlar bilan bir qatorda, ularni zavqlantira olgan xursandchilik va shodonliklarni, bir so’z bilan aytganda, mazkur hududda istiqomat qiluvchi tub aholining yashash tarzi hamda go’zal manzarasini qalamga oldi. Uning har bir ijod namunasida shu zamin insonlari va tabiatiga bo’lgan mehr, chuqur ehtirom hamda mashaqqatli mehnatiga nisbatan hurmat ufurib turdi, kichik nasriy asarlaridagi yetakchi mavzular ham aynan qishloq odamlaridagi samimiylik, bolajonlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, tabiat in’omlariga muhabbat va qayg’urish bo’ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

J.Styuart hikoyachiligi R. I. Foster, U.Holl, J.U.Miller, K. Klark, M.U.Klark, J.R. LeMaster, H.P. Teylor, E.L.Blair, G.Brosi, D.Kohler va J.A.Herndn singari adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq qilinib, xususan muallif kichik nasriy asarlarida ustunlik kasb etgan

ta'lim mavzusi, hikoyalar tuzilishi, adib uslubi, folklor namunalaridan mohirona foydalanishi, mazkur ijod namunalarining vujudga kelishida turtki bo'lgan madaniy-tarixiy kontekstga oid fikrlar bayon qilindi.

J.Styuart umri davomida ko'plab she'rlari bilan birga, salmoqli hajmda nasriy asarlar ham yaratdi. To'rt yuzdan ortiq yozilgan hikoyalarida aynan mamlakatning bir necha shtatlari orqali o'tgan va Kentukki shtati kengliklariga qadar yastangan haybatli Appalachi tog'larida istiqomat qiladigan tub xalqlarning xarakteri, ruhiyati hamda madaniy o'ziga xos xususiyatlarini haqqoniylik va chuqur hamdardlik bilan gavdalantira olgani sababli millat adabiyotiga mazkur asarlar aks-sado bo'lib kirib keldi, chunki adib aksar ijod namunalarida e'tibordan chetda qolgan jamiyat qatlamiga diqqat qaratib, ular ham necha asrlik madaniyatga ega insonlar sifatida mamlakat tarixi va madaniyatida o'rni borligini yoritib berdi.

MUHOKAMALAR

J.Styuart ilk hikoyasini 1923-yilda, aniqrog'i ikkinchi bosqich talabasi bo'lib tahsil olib yurgan yillarida yozdi. "Nest Egg" deb nomlanadigan mazkur hikoyada fermadagi bir xo'roz va uning dominantlikga intiluvchi tabiati tasvirlanib, parrandaning tovuqlarni o'ziga jalb qilishi, hatto boshqa fermalardan tovuqlarning u bilan munosabat o'rnatish uchun kelishi, nihoyat qo'shnilar bilan to'qnashuv vujudga kelishi ifodalanadi. Majoziylik kasb etgan bu ijod namunasini muallif yigirma yil o'tgach, "Atlantik Mansli" ("Atlantic Monthly") jurnaliga beradi va tahririyat 1943-yil fevral oyida nashr qiladi, keyinchalik adib bu asarini "Tales from Plum Grove Hills" hikoyalar to'plamiga ham kiritadi. Nosirning o'ndan ortiq mavjud hikoyalar to'plami uning kichik nasriy janrdagi barakali ijodi, nainki poeziyada, balki prozada ham yetuk mahorat egasi ekanini namoyon etadi. Yuqorida zikr etilgan adabiyotshunoslar aksar hollarda J.Styuart hikoyalarida falsafiy jihatdan yondashgani, ko'proq mazmuniy jihatlar tilga olingani, mazmun va shakl birligi tahlilga tortilmagani, kichik nasriy namunalarning poetik ifodada turli kontekstlar orqali yondashilgani nazardan chetda qolgani e'tiborni tortadi. Shu sababli adib hikoyalari tahliliga gibridda, ya'ni XX asr Amerika madaniyatida muqim mavqega ega, ammo yetarli ochib berilmagan Appalachi submadaniyatining nasrda talqini va yozuvchining bu tasvirga turli rakurslar orqali yondashishi uyg'un tadqiq qilishga harakat qilindi. Bunda muallifning hikoya janridagi betakror uslubi, aynan Appalachi submadaniyatiga xos bo'lgan mavzular ifodasi, mavjud insonlar tasviri asosida poetik xarakter yaratishdagi o'ziga xosligi, hayot haqiqatlarini turli ifoda rakurslari orqali istifoda etilishi "Another April" ("Yana bir Aprel") hikoyasi misolida tahlilga tortildi. J.Styuart kichik nasrining ijtimoiy-madaniy hamda poetik tahlilga tortilishi adib uslubi qamrov doirasini ochib berishi bilan birga, kitobxonlarning XX asr AQSH sotsiumi hamda madaniyatiga oid fikrlari boyishiga olib keladi.

1941-yilda "Accent: A Quarterly of New Literature" adabiy jurnalida nashr qilingan "Another April" hikoyasida vaqt, inson hayotida umrning shiddat bilan o'tishi, hayot qadri va mazmuni, bolalik sururi, tabiat betakrorligi kabi mavzular yoritiladi. Asarda personajlar sistemasida uchta figura bo'lib, har uchalasining badiiy vazifasi mutanosib tarzda namoyon bo'ladi. Hikoyadagi to'qson yoshdan oshgan bobo obrazi muallif tug'ilib o'sgan Appalachian tog'lariga xos katta avlodning tipik namunasi ekani e'tiborni tortadi. Yozuvchi hatto qariya timsoli tasvirida ham turli rakursdan yondashadi. Asarning dastlabki

qismlarida nevara orqali tasvir quyidagicha keltiriladi: *“He looked like a picture of Santa Claus. But Grandpa's cheeks were not cherry-red like Santa Claus's cheeks. They were covered with white thin beard --- and above his eyes were long white eyebrows almost as white as percoon petals and very much longer”*. [5]. Styuart dinamik portret orqali qahramonini butun dunyoda qorbobo yoki asosan Yevropa, Amerika, Avstraliya qit'alarida Santa Klaus sifatida tanilgan qahramonga o'xshatish badiiy ifoda vositasi yordamida gavdalantiradi. “Santa Claus” obrazi afsonaviy timsol bo'lib, G'arb xristian madaniyatiga xos hamda ko'plab folklor qadriyatlar bilan bog'liq [6]. Nevara uchun bobosining oiladagi roli bevosita shu obraz tasviriga uyg'un ravishda aks ettiriladi. Yangi yilda Santa Klausni ko'rishi bilan mamnuniyat his qiladigan har bir oiladagi farzand singari nevara personaji ham bobosiga nisbatan xuddi shunday hissiyotlari mavjud ekani yozuvchi Santa Klaus, uning gilos kabi qizargan yonoqlari, oppoq nurli soqoli hamda uzun nuroniy qoshlari yordamida ifodalaydi.

Aynan shu tasvirda yana bir e'tiborli jihat mavjudki, bu J. Styuart uslubi poetikasida muhim xususiyatlardan biri ekani anglashiladi. Misoldagi “percoon” badiiy detali muallifning o'zi istiqomat qilgan hududning tipik muhitini gavdalantirishida ahamiyat kasb etadi. “Courier Journal”ning 1955-yildagi nashrida J. Styuart “percoon” o'simligi haqida batafsil ma'lumot beradi [7]. Aslida bu o'simlik “bloodroot” (“qonli ildiz”) deb nomlanib, ammo ilk Kentukkiliklar mahalliy zanj qabilalar tilidan uni “puccoon” shaklida o'zlashtirib, muomalaga kiritishgani, butun mamlakatda bu o'simlik “bloodroot” shaklida qo'llanilsa, aynan shu hududda “percoon” sifatida muomalada ekani izohlab beriladi. O'simliklar olamida “sangvinariya” deb ataladigan bu gul faqat Shimoliy Amerika mintaqasida uchrab, ildiziga har qanday shikast yetkazilsa, ochiq qizil suyuqlik sizib chiqqanligi sababli, “bloodroot” – “qonildiz” deb ham ataladi. [8] Bir qarashda moychechakni eslatadigan, ammo moychechakga qaraganda gulbarglari ancha zichroq joylashgani unga betakror ifoda baxsh etadi. Muallif qahramonining qoshlarini aynan gulbarglarga mengzashi ham poetik ifodadagi o'zgachalikni ta'minlaydi.

J. Styuart maqolada mazkur gul mahalliy xalqlar uchun ramziylik kasb etgani, mahalliy zanj qabilalari uning ildizidan olinadigan alvon rangdagi sharbatidan marosimlarida tana a'zolarini bo'yashda foydalanishlarini, shuningdek bu gul Kentukki bahorining darakchisi ekani hamda dunyodagi betakror o'simliklardan biri ekani ham qayd etiladi. Ko'rinadiki, yuqoridagi bosh qahramonning dinamik portretida “percoon” gulining oq rangli o'simlik sifatida kasb etgan mazmun-mohiyatidan maqsadli foydalaniladi. Oilaning keksa a'zosi sanalgan bobo ehtiromga ega inson, yillar zalvori, mavsumlar silsilasidan mustahkam insoniylik fazilatlarini bilan yashab kelayotgan qahramon sifatida o'zidan keyingi salafariga shu qadriyatlarni yetkazuvchi, Vatanga sadoqat hamda sodiqlikni o'zida mujassam etgan obraz ko'rinishida gavdalanadi. Muallif xalq orasida o'z qimmatiga ega ramziy gulning sifatlarini bobo personajiga ko'chiradi. Zukko kitobxon muallifning oq rangi misolida qahramonidagi soflik, musaffolik, poklik hamda pokizalik, halollik, samimiylik hamda donishmandlik xislatlariga urg'u berganini anglaydi. Hududdagi har bahorni boshlab beradigan “percoon” guli esa Kentukki madaniyati, tarixi, betakror xalqi, an'ana hamda qadriyatlarining timsoli sifatida qahramon tasviri bilan uyg'unlik hosil qiladi.

“Another April” hikoyasida Grinap hududi (Greenup County) badiiy tasviriga keng o'rin berilib, muallif mazkur makon odamlariga xos serg'ayratlilik, oilalardagi bahamjihatlik, oilaviy munosabatlardagi samimiylik hamda ahillik kabi jihatlarga ayro e'tibor qaratadi. *“I wondered who lived here on this land then, what kind of a house they lived*

in, and if they had a sassafras with tiny thin April leaves on its top growing in their yard, and if the person that cut that date on the terrapin's back was buried at Plum Grove, if he had farmed these hills where we lived today and cut timber like Grandpa had --- and if he had seen the Aprils pass like Grandpa had seen them and if he enjoyed them like Grandpa was enjoying this April".[3] J.Styuart hikoyadagi bola qahramonida kechgan ruhiy jarayonni ong oqimi texnikasi orqali bayon etadi. Bobosi hamda toshbaqa o'rtasidagi iliq munosabatlardan hayratlangan bola o'zi mansub hududning avvalgi odamlari, ularning madaniy hamda maishiy hayot tarzi haqida o'ylar ekan, ularda ham sassafras daraxtlari har Aprel oyida mitti barglar chiqarganmikan, toshbaqaning ustida o'yib yozilgan 1847-yil sanasi bilan bog'liq odamlar ham Plam Grouv (Plum Grove) qabristonida dafn etilganmikan, ular ham dehqonchilik bilan shug'ullanganmikan, xuddi bobosidek yog'och kesganmikan, ular ham bir necha Aprellarni ko'rganmikan, bobosi singari Apreldan bahramand bo'lganmikan kabi o'ylar charx uradi. Ko'rinadiki, parchadagi har bahorda oq rangda gullaydigan shifobaxsh sassafras daraxtining mayda barglari, yoki Plam Grouv qabristoni, yoki 1847-yilning eslatilishi hamda personaj tomonidan toshbaqaning badiiy zamonda to'qson besh yoshga kirganiniga urg'u berilishi real zamonda 1942 yil ekanini, tasvirlanayotgan geografik makon haqqoniyliigi, undagi insonlarning ham hayotda prototipi mavjudligi tushuniladi. Manbalar shuni tasdiqlaydiki, [4] Plam Grouv qabristoni Grinap, Kentukki shtatida joylashgan bo'lib, bu qabristonda muallifning ajdodlari, oila a'zolari dafn etilgan. Shuningdek, real 1942-yilda adibning to'qson bir yoshli bobosi Natan Preston Hilton (Nathan Preston Hylton) hayot bo'lib, 1943-yilda vafot etgan. Anglashiladiki, hikoyadagi bola obrazi aslida yozuvchining o'zi bo'lib, real hayotda mavjud insonlar, ko'rgan-kechirgan, guvoh bo'lgan voqealar, tug'ilib o'sgan Grinapdagi tabiat go'zalliklari hikoyalarining fabulasi vazifasini o'tadi. Adibning inson sifatida shakllanishida, odamiylik fazilatlatlari barkamollashuvida tayanch bo'lib xizmat qilgan oilasi, yaqin qarindoshlari, qadrdon qishloqdoshlarining samimiy munosabatlarini beqiyos rolini his etgani holda, hikoyalari syujetining asosini ham shu o'lmas rishtalar tasviriga qurdi.

J.Styuart hikoyachiligi millat ma'naviayati, madaniyati, tafakkur chegaralari, qadriyat hamda an'analarini o'zida yorqin namoyon eta oldi. M.U.Klark "Jesse Stuart's Kentucky" risolasini *"For the people of our Southern Mountains, whose heritage and destiny I share, and for the man who has given them a voice in the literature of our time"*, [1] epigrafi bilan bohslaydi. Haqiqatda, J.Styuart mamlakat janubidagi tog'lar, ularda ancha muddatdan beri istiqomat qilayotgan xalqlarga mansub meros va madaniyatni keyingi avlodga yetkazish bilan bir qatorda, ularga badiiy ovoz, poetik siyrat hamda umrboqiy nasriy va nazmiy hayot berdi. Adabiyotshunos adibning Appalachi madaniyati, tog'li xalqning tafakkur chegaralari, qadriyatlari hamda an'analari tasvirida g'oyatda sergak turib, avvalo o'zining qalb prizmalarida his etadi, keyin ularga poetik rang orqali talqin etadi, bu tasvirning ekspressivligi shu qadarki, uni o'qigan kitobxon xox u yoshi katta bobo personaj bo'lsin, xoxki yosh bola qahramon uning hislariga befarq bo'la olmaydi.

J.Styuartning "Come Take This Tour with Me" maqolasi ham uning Ona yeriga muhabbatini ifodalaydi. Yozuvchining ijodiy nigohi orqali Kentukkiga sayohat qilinsa, xuddi Choserning Kenterberisi, R.Bernzning Shotlandiyasi hamda U.Folknerning yoki M.Tvenning Mississipisi singari Kentukki aholisiga tegishli mikroolamning madaniy-ma'rifiy tasviri, tub xalqlarda mujassam zakiylik, oqilona va hazilomuz ruhdagi hayot darsiga oid mufassal ma'lumotlar olish mumkin. Shu mikrodunyoga xos o'zlik poetik talqinida muallif individual uslubini ta'minlagan omillardan yana biri – Amerika

folkloridan AQSH adabiyotiga o'zlashgan "suhbat uslubi" ("talk style"), AQSH hikoyachiligida ustuvorlik qilgan yumoristik ruh, Mark Tven olib kirgan hamda boyitgan AQSH kengliklariga xos regional tasvir uyg'unlashuvidan hosil bo'lgan yondashuv ekani oydinlashadi. Ijodkor o'zi daxldor hudud tasvirida faqat nabotot yoki hayvonot olamiga mansub elementlardan foydalanish bilan cheklanmadi. Regional dialekt hamda xalq og'zaki ijodi merosining o'rinli qo'llanilishi ham hikoyalarning haqqoniyligi, hayotiyliigi hamda ta'sirdorligini ta'minlay oldi. "Another April" hikoyasida dialektik birliklar ko'proq bola va nevara suhbatlarida namoyon bo'lsa, "Love" hikoyasida bola va otasining dialoglarida ko'proq kuzatiladi. Mahalliy xalqlarning og'zaki nutqida qo'llangan birliklardan foydalanish xarakterlarning hayotiyliyini ta'minlab, hududda hukmron muhitni his qilish imkonini beradi.

XULOSA

"Another April" hikoyalari misolida muallifning rivoya yo'sinidagi o'ziga xosligi regional badiiy ifodaning ko'lamdorligida; qahramonlarini gavdalantirishda mahalliy dialektning qo'llanilishi hamda yumoristik yondashuvidagi ayro mahoratida; obrazlar sistemasidagi gunogunlik hamda ramziylik yordamida kitobxonga kuchli ta'sir o'tkazilishida; muallif va personaj-roviyning binar oppozitsiyada namoyon bo'lishi yozuvchi badiiy niyatining ro'yobida muhim ekani o'z tasdig'ini topdi. XX asr AQSH realistik hikoya janri tabiatidagi evrilishlarda uning so'zi hamda o'rni borligi ayonlashdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Clarke M.W. Jesse Stuart's Kentucky. – N.Y.: McGraw-Hill, 1968. – P.V.
2. Normatov U. Yetuklik. Maqolalar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982. – B. 85.
3. <https://docplayer.net/234563871-Another-april-by-jesse-stuart.html>
4. <https://www.findagrave.com/cemetery/1316912/memorial-search?firstname=nathan+&middlename=Preston&lastname=Hylton&cemeteryName=Plum+Grove+Cemetery&birthyear=&birthyearfilter=&deathyear=&deathyearfilter=&memorialid=&mcid=&linkedToName=&datefilter=&orderby=n&plot=&page=1#sr-33147614>
5. <https://fliphtml5.com/bjcs/ceam/basic>
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Santa_Claus
7. <https://www.newspapers.com/article/the-courier-journal-percoon/47984461/>
8. <https://www.botanichka.ru/article/sangvinariya-tenelyubiviy-mnogoletnik/>
9. Blair E.L. Jesse Stuart; his life and works. – Columbia: University of South Carolina Press, 1967. – P. 320.
10. Clarke M.W. Jesse Stuart's Kentucky. – N.Y.: McGraw-Hill, 1968. – P.264.
11. EDWIN T. ARNOLD. The Canonization of Jesse Stuart // Appalachian Journal, FALL 1985, Vol. 13, No. 1 (FALL 1985), pp. 28-33// Appalachian Journal and Appalachian State University. <https://www.jstor.org/stable/40932677>